ILMIY AXBOROT

UDK: 37.015:343.9 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a159**

O‘QUVCHILARDA JINOYAT VA JAZO TUSHUNCHALARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY ZARURAT SIFATIDA

РАЗВИТИЕ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ О ПОНЯТИЯХ ПРЕСТУПЛЕНИЯ И НАКАЗАНИЯ КАК СОЦИАЛЬНОЙ НЕОБХОДИМОСТИ

DEVELOPMENT OF STUDENTS' KNOWLEDGE OF THE CONCEPTS OF CRIME AND PUNISHMENT AS A SOCIAL NECESSITY

Xusanboy Umarov Rustamovich[1]

[1]**Xusanboy Umarov Rustamovich** − Andijon davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi.

Annotasiya

Mazkur maqolada fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish har bir demokratik davlatning ustuvor vazifasi, o‘quvchi-yoshlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning profilaktikasi va unga qarshi kurashish bugungi kunda butun dunyoda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada yoshlar tarbiyaviy, huquqiy ongi, huquqiy bilimi hamda huquqiy madaniyatini rivojlantirish to‘g’risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье защита прав и свобод граждан является приоритетной задачей каждого демократического государства, а предупреждение и борьба с преступлениями, совершаемыми студентами, является одним из самых актуальных вопросов в современном мире. В связи с этим представлены мнения о развитии воспитательного, правосознания, правовых знаний и правовой культуры молодежи.

Abstract

In this article, the protection of the rights and freedoms of citizens is a priority task of every democratic state, and the prevention and fight against crimes committed by students is one of the most urgent issues in the world today. In this regard, opinions on the development of educational, legal consciousness, legal knowledge and legal culture of young people have been presented.

Kalit so‘zlar: *O‘quvchi-yoshlar, fuqarolik jamiyati, jinoyat va jazo, ijtimoiy zarurat, huquqiy bilim, huquqiy madaniyat, inson huquqi, bozor iqtisodiyoti, Ta’lim va tarbiya, oila va nikoh.*

Ключевые слова: *Студенческая молодежь, Гражданское общество, преступление и наказание, социальная потребность, правовые знания, правовая культура, права человека, рыночная экономика, Воспитание и воспитание, семья и брак.*

Key word: *Student-youth, Civil society, crime and punishment, social need, legal knowledge, legal culture, human rights, market economy, Education and upbringing, family and marriage.*

KIRISH (ВИДЕНИЕ/INTRODUCTION)

Bugungi kun jahondagi barcha davlatlar fuqarolik jamiyatini barpo qilishga bel bog‘lagan. Fuqarolik jamiyati – qonun ustuvorligi va insonning huquq, erkinliklari qaror topadigan ijtimoiy tuzum hisoblanadi. Bunday muhim vazifani bajarish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o‘tish orqali amalga oshiriladi. Mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining shartlaridan biri xalqimizning farovon turmush kechirishini ta’minlashga xizmat qiluvchi qonunlarning mavjudligi hamda amalda qaror topishidir. Ularning mazmun-mohiyati bilan tanish bo‘lish va qonunlarga rioya qilish fuqarolik burchimiz bo‘lib, u odamlarning huquqiy ongi, huquqiy bilimi hamda huquqiy madaniyatida namoyon bo‘ladi.

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish har bir demokratik davlatning ustuvor vazifasidir. Bu borada Respublikamiz Konstitusiyasi qabul qilinishi munosabati bilan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish maqsadi belgilanib, unda inson huquqlari va davlat suvereniteti g‘oyalariga, shuningdek, demokratiya va ijtimoiy adolatga sodiqlik e’lon qilingan, xalqaro huquqning umum e’tirof etgan qoidalarining ustunligi tan olindi.

Mamlakatimizda islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirish qat’iyat bilan olib borilganligi tufayli, bozor iqtisodiyoti tizimini barpo etish, huquqiy demokratik davlatning ijtimoiy munosabatlarini shakllantirish yo‘lida jiddiy yutuqlarga erishildi. Bu borada yoshlar tarbiyasi ham o‘ta muhim vazifalardan biri bo‘lib qolaveradi.

Ma’lumki, o‘quvchi-yoshlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning profilaktikasi va unga qarshi kurashish bugungi kunda bu tun dunyoda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ana shunday vaziyatni inobatga olgan holda, bu borada Respublikamizda

yoshlarga oid qabul qilingan barcha hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish va tarbiyalash masalalari «Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya»da, Parlamentimiz tomonidan qabul qilingan «Yoshlarga doir davlat siyosati asoslari to‘g‘risida», «Ta’lim to‘g‘risida», «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunlar, «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish millliy dasturi», Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Yoshlar yili davlat dasturlari»da o‘z aksini topganligi fikrimizning dalilidir. Shuningdek, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o‘ringa ega bo‘layotgani va yoshlar omilining alohida e’tiborni talab qilayotgani haqidagi fikri nihoyatda muhim ahamiyatga ega [1]. Zotan, dunyoning barcha davlatlari intilayotgan dolzarb va o‘ta muhim muammolardan biri ham - bu jinoyatchilikning oldini olishdir. Huquqbuzarliklarning oldini olishning samaradorligi va zaruriyati haqida qadim zamonlardan beri ko‘p mulohazalar aytilgan va yozma manbalar ham bizgacha yetib kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ /METHODS)

“Avesto”da Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining huquqiy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Unda huquqiy qoidalar tartibli tarzda berilmagan bo‘lsa ham ma’lum ma’noda o‘sha davrning huquqiy munosabatlarini aks ettiradi. Hozirgi zamon tasavvurlaridan kelib chiqqan holda, “Avesto”da jinoyat va jazo, fuqarolik, oila va nikoh, mulk, yer-suv bilan bog‘liq masalalarni tartibga soluvchi huquqiy ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Axloqiy qoidalar singari huquqiy qoidalar ham “Avesto”da diniy ruh bilan sug‘orilgan holda aks ettirilgan. Ular ham xudo tomonidan o‘rnatilgan ilohiy qonunlar sifatida talqin etilib, bosh hakam sifatida xudo Ahura Mazdaning o‘zi ko‘rsatilgan.

Qadimgi davrlarda va o‘rta asrlarda ham xuddi “Avesto”da tasvirlanganidek, sud va unda qo‘llanadigan jazo usullari o‘zining shafqatsizligi bilan ajralib turadi. Jazolash vositasi sifatida, o‘t va qizdirilgan temir va boshqalar qo‘llanilgan. Aybdorlarga qamchi bilan urishdan tortib to o‘lim jazosigacha bo‘lgan chora-tadbirlar qo‘llanilgan. Aytish mumkinki, qadimgi ajdodlarimiz hayotidan xabar beruvchi “Avesto”da atrof-muhitni (yer, suv, havo) ifloslantirishni jinoyat deb bilib, ana shunday harakatlarni sodir qilgan shaxslarni tan jazosi bilan yoki 400 qamchi bilan jazolash belgilangani aytilgan. Bu esa, jamiyatning tartibga solinishida adolat hamda tabiatga bo‘lgan oliyhimmatlilik belgisini ifodalaydi. Biroq tan jazosi boshqa majburiyat bilan ham almashtirilishi mumkin bo‘lgan. Bundan shu narsani anglash mumkinki, “Avesto” jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishga va huquq manbasi sifatida ko‘pgina ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o‘ynagan. Undagi tartibga solish, jazo usuli yuksak insoniy qadr-qimmat g‘oyalariga asoslangan holda amalga oshirilgan. Ushbu jamiyat tabiatni, undagi yer, suvni muqaddas deb bilgan va ularga qarshi chiqqan hamda qadriga yetmagan yovuz kimsalarni jazolagan.

Ta’lim va tarbiya sohasida esa, bu jarayondagi ustoz va shogird munosabatlariga tegishli bo‘lgan burch hamda ma’suliyat Nizom–qonunda belgilangan. Bunga ko‘ra, ustoz Ahura Mazda o‘gitlari va talablarini qanday bo‘lsa, shu mazmunda o‘quvchiga yetkazishi talab qilingan. O‘quvchilar esa, ilohiy va dunyoviy Nizom talablarini yaxshi o‘zlashtirib olishlari zarur bo‘lgan. Qizlar 7 yoshdan 15 yoshgacha, o‘g‘il bolalar esa 7 yoshdan 17 yoshgacha ta’lim olishlari majburiy hisoblangan [2;806-814].

Bundan tashqari, ta’lim-tarbiya va huquqiy ta’limotga talluqli masalalar ham talqin etilgan. Bu borada asarning tadqiqotchilar tomonidan o‘rganib chiqilgan ijtimoiy masalalari ham diqqatga sazovordir. Professor H.Homidiy fikricha, “Vandidod”dagi huquqiy qarashlarni-jinoyatlarni shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Dinga qarshi jinoyatlar: g‘ayridin bilan nikohga kirishish, kohinni haqoratlash, mansabini suistmol qilish kabilar

2. Shaxsga qarshi jinoyatlar: hujum, tahdid solish, homilani tushirish, ayolga homiladorlik paytida shikast yetkazish.

3. Hayvonlarga, uy hayvonlariga, xususan, turli xildagi itlarga qarshi jinoyatlar.

4. Mulkiy jinoyatlar: o‘g‘irlik, qaroqchilik, paymonshikonlik, talon-taroj, bosqinchilik.

5. Axloqiy jinoyatlar: fohishabozlik, zo‘rlash, er-xotinlarning xiyonati, qasddan oila qurmay yurish, nikoh qoidalarini buzish, zino, xiyonat.

6. Tabiatga qarshi jinoyat: yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzish, yerning meliorativ holatiga qaramaslik, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidasini, jamoat va shaxsiy gigiyenani buzmoq,

bog‘-rog‘, rezavorga zarar yetkazmoq, suvni isrof qilmoq, betartib butazor yaratmoq, daraxt o‘tqazmoq [3:118].

“Avesto”da barcha jinoyatlarga beriladigan jazolarning aniq me’yorlari belgilab qo‘yilgan. Masalan, dengiz kuchugini o‘ldirganga belgilangan jazo bilan cho‘pon itini halok etganning jazosida ham, jarimasida ham jiddiy farq bor. Yoki hovuzdan yuvilmagan ko‘zada suv olgan bilan bug‘doyzorni payhon qilgan, daraxtning shohini sindirganga beriladigan jazolar ham o‘zaro farq qiladi. Ko‘rinib turibdiki, gunoh uchun beriladigan jazo tartiblari qat’iy nizomga, qonun tusiga kirgan bo‘lgan.Muqaddas manbada qayd etilganidek, daraxtning bir shoxini sindirgan ham, nopok ko‘zani hovuzga solgan ham 25 qamchi kaltaklanish bilan jazolangan. Turmushga chiqib zurriyot qoldirish kerakligini unutgan balog‘at yoshidagi qizlar qopga solinib 50 qamchi kaltaklangan. Balog‘atga yetib, uylanmay yurgan yigitlar esa, temir kamar bog‘lab yurishi shart bo‘lgan [4:138-142].

“Avesto” sahifalarini ko‘zdan kechirar ekansiz, unda hozirgi zamon huquqining asosiy tamoyillari va qoidalari o‘z ifodasini topganiga ishonch hosil qilasiz. Chunonchi berilgan so‘z, olingan majburiyat va qasamni qat’iy turib bajarish zardushtiylik e’tiqodlari bo‘yicha nihoyatda qadrlangan.

Ma’lumki, jinoyat va jazo masalalari qadimgi dunyo davlatlarida ham yetakchi rol o‘ynagan. Masalan, qadimgi Misrda davlat sirlarini oshkor qilish og‘ir jinoyat bo‘lib, bu jinoyatni sodir etgan aybdor shaxslarning tili kesib tashlangan. Shuningdek, qalbaki narsalarni yasash va tayyorlash ham jinoyat hisoblanib, aybdorlarning qo‘li chopilgan. Hayratlanarli jihati, qalbaki muhrlar, pullar yasaganlarning chap va o‘ng qo‘llari, soxta tosh-tarozilardan foydalangan kishining esa tana a’zolaridan biri kesilgan.

Ta’kidlash joizki, o‘g‘irlik jinoyati uchun og‘ir jazo tayinlangan. O‘g‘irlik jinoyatini sodir etgan aybdor shaxsning qo‘lini kesish belgilangan. Shuningdek, xotinning eriga xiyonati va bevafolik qilishi og‘ir jinoyat, deb e’tirof etilgan va bu jinoyatni sodir etgan shaxsning burni kesilgan.

Qadimgi Mesopatamiya davlatida birovni odam o‘ldirishda yolg‘ondan ayblovchilarga va yolg‘on ko‘rsatma berish oqibatida biror bir kishi uchun o‘limga mahkum etilish xavfini tug‘dirgan shaxslarga o‘lim jazosi tayinlangan. Agar shifokor ehtiyotsizlik natijasida bemorni o‘ldirib qo‘ysa, uning qo‘li kesilgan.

Qadimgi Hindistonda davlat va ijtimoiy tuzumga qarshi har qanday suiqasd qilgan kishi o‘lim jazosiga hukm qilingan. O‘z davlatini yoki qishlog‘ini qattiq ovoz chiqarib so‘kkan kishiga eng yuqori jarima jazosi tayinlangan. Shuningdek, Braxmanni o‘ldirish eng og‘ir jinoyat hisoblangan. Ammo braxman odam o‘ldirish jinoyatini sodir etgan bo‘lsa, unga o‘lim jazosi hukm qilinmagan va u mamlakatdan quvib yuborilgan. Birinchi marta o‘g‘irlik qilgan kishining ikkita barmog‘i, ikkinchi marta o‘g‘irlik qilgan kishining qo‘li va oyog‘i kesilgan. Uchinchi marta o‘g‘irlik qilgan kishi o‘lim jazosiga hukm qilingan.

Qadimgi Xitoy davlatida esa, qasddan qilingan tuhmat uchun og‘ir jazo qo‘llanilgan. Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlagan kishi og‘ir jazoga hukm qilingan, ichkilikbozlik qilgan kishiga o‘lim jazosi tayinlangan.

Qadimgi Yunoniston davlatida biror kishiga qasddan tan jarohati yetkazgan kishining mol-mulki musodara qilinib, u mamlakatdan haydab yuborilgan. Qasddan odam o‘ldirish, davlatga xiyonat, xudosizlik kabi jinoyatlar uchun o‘lim jazosi berilgan. Agar o‘g‘ri jinoyat sodir etgan joyida qo‘lga olingan bo‘lsa, u qamoq jazosiga hukm qilingan, kechasi o‘g‘irlik qilgan shaxsga o‘lim jazosi tayinlangan.[5:112]

Xulosa o‘rnida aytishmiz joizki, davlatchilik rivojlanishi jarayonida jinoyat turlari va ularga beriladigan jazolar ham shakllanib, o‘zgarib borgan.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini shakllantirishda qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu o‘z risolalarida «davlatning jazolash siyosatidan ko‘ra, huquqbuzarliklarning oldini olish – ustuvor ahamiyatga egadir», deb e’tirof qilishgan.

Keyinchalik, S.Monteskyu o‘zining «Qonuniyat ruhi» asarida huquqbuzarliklarning oldini olishda ustuvor jihatlar haqida fikr yuritib, shunday yozadi: «yaxshi qonun chiqaruvchi jinoyat uchun jazo berish haqida emas, balki jinoyatchilikning oldini olish haqida o‘ylashi kerak: axloqni jazolashga qadar yaxshilashga ko‘proq harakat qilish muhim».[6]

Jinoiy jazo o‘z tabiatiga ko‘ra, jinoyat qonuni talablarini bajarmagan, uni buzgan shaxslarga nisbatan tarbiyaviy choradir. Jinoiy qilmishlarga tayinlanadigan jazolar, eng avvalo, jamiyat va davlatning tashkiliy tuzumini, tarixiy shakllanib kelgan jinoyat-huquqiy nazariyalar va ta’limotlar, udumlarga, jinoyatchilik dinamikasiga ham bog‘liq holda turli davrlarda uning maqsadi turlicha bo‘lib kelgan.

Aytaylik, qadimgi davrda o‘ch olish, keltirilgan zararni (kompozisiyaviy javobgarlik) qoplash, ba’zan jismonan yo‘qotish bo‘lsa, o‘rta asrlarda keltirilgan zararni qoplash, jamiyatning boshqa a’zolarini jazo tahdidi bilan qo‘rqitish va ogohlantirish, jamiyatdan ajratish bo‘lgan. Yangi tarix davri jinoyat huquqiga va jazo tayinlash amaliyotiga g‘arbiy Yevropaning eng mashhur huquqshunos olimlari Ch.Bekkaria, Monteskьye, Russoning qarashlarini olib kirdi. Endi jazoning sodir etilgan jinoiy harakatga (proporsional) tengligi, jinoyatsiz jazoning bo‘lmasligi, aybsizlik ehtimolligi (prezumsiyasi), jinoiy jazoni og‘irlashtiruvchi jinoyat qonuni orqaga qaytish kuchiga ega emasligi va boshqa ilg‘or qoidalar jinoyat qonunlariga kiritildi. Ana shular asosida jinoiy jazoning maqsadi belgilandi. Jazodan maqsad jinoyatchining shaxsini, qadr-qimmatini kamsitish, o‘ch olish, jismonan yo‘q qilish emas, keltirilgan zararni qoplash, jinoyat sodir etgan shaxsni axloqan tuzatish, kelgusida sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning oldini olish bo‘lib qoldi [7:258-262].

Demak, jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan. Inson tinch va xotirjam yashashni xohlaydi. Tinchlik bo‘lgan joyda baraka va rivojlanish bo‘ladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida O‘zbekistonning jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi maqsadlari aniq va ravshan bayon etildi. Jumladan, Harakatlar strategiyasida «aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligini mustahkamlash borasida» aniq vazifalar belgilandi. O‘tgan qisqa vaqt mobaynida mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimiz o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida turli xil illatlarni oldini olish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash maqsadida salmoqli ishlar qilinmoqda. Xususan, mustaqillik qo‘lga kiritilganidan 3 oy o‘tmasdan, ya’ni 1991-yil 20-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. 2016-yilga kelib “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Bundan tashqari, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi, qator xalqaro hujjatlar ratifikasiya qilindi.

Parlamentning yoshlar bilan ishlash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiyasi tuzildi va o‘zining faoliyatini boshladi [8]. Yoshlarning, ayniqsa uyushmagan, ish bilan band bo‘lmagan, tayin bir mashg‘ulotga ega bo‘lmagan yoshlarning kasb-hunarlarni puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratishga, bandligini ta’minlashga, ishbilarmonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishga ko‘maklashish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlarni joriy etish bo‘yicha takliflar kiritish ushbu komissiyaning asosiy vazifalaridan biri qilib belgilandi.

O‘ylaymizki, ushbu komissiya ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar, ayniqsa voyaga yetmaganlar tomonidan turli jinoyat, huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, bir so‘z bilan aytganda, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta’minlash borasida bizning oldimizga qo‘yayotgan vazifalarni bajarishga o‘zining hissasini qo‘shadi.

Huququzarliklarning oldini olish, unga qarshi kurashish haqida gapirganda, ushbu soha vakillarining ijtimoiy himoyasiga alohida ahamiyat qaratilayotganligi ham e’tiborlidir. Xususan, 2016 yilda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunda ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish sog‘lig‘ini saqlash, mehnatiga haq to‘lash, uy-joy bilan ta’minlash, mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash, xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida transport vositalaridan imtiyozli foydalanish, davlat pensiya ta’minoti, davlat sug‘urtasi, ijtimoiy yordam ko‘rsatish shakllari orqali ta’minlanishi belgilab qo‘yildi. Ushbu qilinayotgan ishlar mamlakatimizda huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan tizimli islohotlar xalqimizning tinch va osoyishtaligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning zaruriy sharti — bu qonunlarning so‘zsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va so‘zsiz bajarilishi bo‘lajak huquqshunoslarimizning o‘z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas’uliyatni his qilishiga bog‘liqdir.

Shu o‘rinda jinoyat va jazo tushunchalariga to‘xtalib o‘tsak. “Jinoyat” tushunchasiga jinoyat-huquqiy ta’rif birinchi bor 1791-yilda qabul qilingan Fransiya Jinoyat kodeksida berilgan bo‘lib, ushbu ta’rif formal tusga ega edi. Unda jinoyatga: “Jinoyat bu – amaldagi jinoyat qonuni bilan jazolanadigan qilmishdir”, – deya ta’rif berilgan edi [9].

Jinoyat bu – ijtimoiy va huquqiy hodisa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2-moddasida ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida jinoyat tushunchasi belgilab qo‘ygan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat tushunchasi aniq belgilangan bo‘lib, 14-moddaning 1-qismiga ko‘ra, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Jinoyat – shaxsning jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ma’lum bir shakldagi xatti-harakati hisoblanadi.

Jinoyat tushunchasi harakat yoki harakatsizlik shaklidagi shaxsning xulq-atvori (xatti-harakati, faoliyati)ni ifodalaydi. Shu bilan birga, jinoyat qonunida ruhiy jarayonlar, o‘ylar, fikriy xulosalar qanchalik zarar keltiruvchi bo‘lishiga qaramay, jinoyat hisoblanmasligi belgilab qo‘yilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Ma’lumki, jinoyatchilikka qarshi kurashda va uning oldini olishda qo‘llaniladigan asosiy vositalardan biri, bu jinoiy jazo hisoblanadi. Yuridik adabiyotlarda jazo tushunchasi, uning maqsadlari yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Jazoning mohiyati va yuridik tabiatini ochib berish, jinoyat huquqida markaziy masalalardan biri bo‘lib, usiz jazoning mazmun va maqsadi, tarbiyaviy va ogohlantiruvchi ahamiyati to‘g‘risida tasavvur hosil qilish mumkin emas. Jinoyat va jazo hayotdagi turli hodisalar bo‘lib, o‘z navbatida, ularning bir-biri bilan bog‘liqligini inkor etib bo‘lmaydi. Jinoyat – alohida shaxs tomonidan (guruh) qonun normalarini buzib, muayyan harakat yoki harakatsizlikni sodir etish bilan bog‘liq bo‘lsa, jazo – davlatning majburlov chorasi bo‘lib, uning jinoyat sodir qilgan shaxsning jinoiy xulqiga nisbatan munosabatidir. Ya’ni jinoyat va jazo bir-biri bilan bog‘liq va ajralmas bo‘lib, bir-birisiz mavjud bo‘lolmaydi, ular harakat va qarshi harakat, xavf va ushbu xavfni bartaraf etuvchi, zarar (yovuzlik) va unga qarshi kurashuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun bu borada N.S.Tagansev «jinoiy qilmish haqidagi tushunchadan, jazo ushbu qilmishni sodir etgan shaxs bilan davlat o‘rtasidagi alohida munosabat ekanligi kelib chiqadi», deb ta’kidlagan edi.

Demak, jazo davlat bilan jinoyat sodir etgan shaxs o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar ifodasi hisoblanadi. Ushbu holat O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida o‘z aksini topgan bo‘lib, unga ko‘ra «Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun kodeks javobgarlikning asoslari va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralarini belgilaydi.

Jazoning mazmuni, uning tushunchasi va belgilari bilan, o‘z navbatida, u qaysi ijtimoiy-iqtisodiy formasiya doirasida mavjud ekanligiga, qanday ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy qarashlar hukmron ekanligiga bog‘liqdir. Chunki «jazoning turlari va tizimi u yoki bu jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurashda hukmron bo‘lgan qarashlarni ifoda etadi. Ya’ni jazo tizimi jinoyatchilikka qarshi kurashda hukmron bo‘lgan qarashlar natijasida shakllanib va takomillashib, jamiyatning rivojlanish bosqichi va natijalarini anglatadi».

Jazo to‘g‘risida ko‘rsatib o‘tilgan har bir ta’riflar, o‘z navbatida, uning jinoiy jazo sifatida muayyan qirralarini ifoda etadi. Bu borada, jazoning mohiyati E.X.Norbo‘tayev tomonidan to‘g‘ri ochib berilgan bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, «jazolash–bu jazoning mohiyat mazmunidir. Jazo – bu shaxsning jinoyat sodir qilganligi uchun sud tomonidan, davlat nomidan qo‘llaniladigan, mahkumni qonunda ko‘zda tutilgan huquq, erkinlik va manfaatlardan mahrum qilishdir»[10].

Jinoiy jazoning maqsadi, jinoyat qonunida muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu borada huquqshunos olimlarning yagona fikri mavjud emas. Ammo, ta’kidlash kerakki, amaldagi Jinoyat qonunida birinchi marta jazodan ko‘zlangan maqsad tushunchasi ishlab chiqildi, unga ko‘ra jinoiy jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to‘sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi.

ILMIY AXBOROT

«Jazo insonga azob berish, qiynash, o‘ch va qasos olish maqsadlarida emas, aybdorning shaxsi va u tomonidan sodir etilgan jinoiy qilmishning xavflilik darajalariga qarab, uni jazolashdir». O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 42-moddasining mazmuniga ko‘ra, jazoning maqsadlari yanada aniqlashtirilib, jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to‘sqinlik qilish, mahkumning yangi jinoyat sodir etishining oldini olish hamda boshqa shaxslarning jinoyat sodir etishini oldini olish maqsadlarida qo‘llaniladi. Shunga ko‘ra, jinoyat uchun jazo tayinlashdan maqsad, avvalo, uning maqsadlariga erishishda namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, jazoning qonunda belgilangan tushunchasidan quyidagi belgilarni ajratish mumkin:

Birinchidan: Jinoiy jazo davlatning majburlov chorasi sifatida faqat jinoyat qonunida belgilanadi. Ya’ni jinoyat qonunida ko‘rsatilmagan jazolarni sud qo‘llashga xaqli emas, chunki Jinoyat kodeksidagi jazolar ro‘yxati qat’iy bo‘lib, undan chetga chiqishga yoki unda nazarda tutilmagan jazoni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ikkinchidan: Jinoiy jazo faqat sud tomonidan davlat nomidan tayinlanadi. Sud tomonidan tayinlangan jazodan mahkumni hech bir mansabdor shaxs yoki organ ozod qila olmaydi. Faqat sud qonuniy asoslari bo‘lgani holda, shaxsni jazodan ozod qilishi mumkin.

Uchinchidan: Jinoiy jazo faqat jinoyat sodir qilishda aybdor bo‘lgan shaxslargagina qo‘llaniladi.

To‘rtinchidan: Jinoiy jazo faqat jinoyat sodir qilgan shaxsning o‘zigagina qo‘llaniladi, uning a’zolariga yoki oila a’zolaridan biriga nisbatan qo‘llanilishi mumkin emas.

Beshinchidan: Jinoiy jazoni qo‘llash – aybdorning harakatini davlat tomonidan qoralashdan iborat bo‘lib hisoblanadi. Jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan jazo qo‘llash, uning jinoiy qilmishiga axloqiy va huquqiy jihatdan baho berishdir.

Oltinchidan: Jinoiy jazo mahkumga nisbatan uning sodir qilgan jinoyatining ijtimoiy xavflilik va ayb darajasiga qarab ma’lum darajada musibat keltiradi (sudning hukmida ko‘rsatilgan muddatlarga cheklanadi, ma’naviy jafo keltiradi, moddiy zarar ko‘radi.)[11].

Yuqorida qayd etilganlardan, shunday xulosa chiqarish mumkinki, demak, jinoiy jazo davlatning majburlov chorasi bo‘lib, u faqat jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan, davlatning organi sud tomonidan qo‘llaniladi va mahkum uchun ma’lum bir huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Jazo tizimi deganda, jinoyat qonuni bilan o‘rnatilgan va sudlar uchun majburiy hisoblangan va ma’lum tartib asosida ularning yengilidan og‘iriga qarab joylashtirilgan jazolar ro‘yxati tushuniladi. Jazo tizimi tushunchasi o‘zida bir qator belgilarni nazarda tutadi. Jumladan, jazo tizimida nazarda tutilmagan birorta majburlov chorasi jinoiy jazo sifatida tayinlanishi mumkin emas, jazolarning turlari, qo‘llanish tartibi va asoslari faqat jinoyat qonunidagina belgilangan bo‘lib, jazo tizimidagi jazolarning ro‘yxati sudlar uchun majburiy hisoblanadi.

Jazo tizimi jinoyatchilikka qarshi kurash borasida huquqshunoslik, psixologiya, pedagogika fanlarining ilmiy yutuqlariga asoslangan holda, jinoyat sodir etgan shaxslarning axloqan tuzalishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, mahkumlar va boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Jinoyat huquqi jinoyatchilikning oldini olishni asosan ikki yo‘nalishda amalda oshiradi. Birinchi yo‘nalish — jinoyat qonunida alohida jinoiy qilmish uchun jinoiy javobgarlikka tortilib jazolanishni belgilanishning o‘zi, og‘ir èki o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun qonun-da og‘ir jazo choralarining belgilanganligi jinoyatchilikning oldini olish vazifasini bajarish bilan birga tarbiyalash (jazolash bilan qo‘rqitib) funksiyasini ham bajaradi.

Ikkinchi yo‘nalish – jinoyat sodir etishda ayblanib, javobgarlikka tortilgan shaxsga nisbatan jazo qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Ya’ni jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan jazoni tayinlab ularning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to‘sqinlik qilinadi.

Aslida huquqbuzarliklarning «oldini olish» va «bartaraf qilish» tushunchalari bir-birlari bilan yaxlit holda bog‘liq bo‘lgani bilan har ikkisining faktik yechimi o‘zgachadir. Agar jinoyatchilik oldi olinmasa yoki loqaydlik sabab profilaktika choralari ko‘rilmasa oxir oqibat u katta muammolarga olib kelishi muqarrar va aksincha, agarda noqonuniy xatti-harakatlarning samarali profilaktikasi amalga oshirilsa, huquqbuzarlikning vaqtida tezkor ravishda oldi olinsa – xavfsiz hudud konsepsiyasi hayotda o‘z tatbig‘ini topadi.

Oldini olish – bu huquqbuzarlikning profilaktik chorasi bo‘lib, faoliyatining eng dastlabki bosqichi sanaladi. Huquqbuzarlikning oldini olish tizimining keyingi bosqichi esa – real holatdagi aniqlangan noqonuniy xatti-harakatlarni bartaraf qilishdan iborat, bunda huquqbuzarlikning shakllangan sabablari va shartlari natijasi sifatida – jinoiy xatti-harakatlar sodir etiladi.

Shunday qilib, jinoyat – bu odamlarning befarqligi sababidan o‘zlarining mavjud holatlarini o‘ta og‘ir sharoitlarga duchor qilish munosabatidan boshqa narsa emas. Shu sababli, yuqorida aytib o‘tilgan qadimgi faylasuflarning fikrida – bevosita muhim yechim ko‘rsatib ketilgan edi, ya’ni «jinoyatlarni jazolashdan ko‘ra ularni oldini olish yaxshiroqdir» deb. Jinoyatlar aslida odamlarning turmush sharoiti, avvalambor, ularning iqtisodiy holati, jamiyatning ikki qatlamga – boy va kambag‘allarga bo‘linishi natijasida yuzaga keladi. Va shuning uchun, har qanday jazo, qanchalik og‘ir bo‘lmasin, deviant xulq-atvorni jilovlay olmaydi.

Ayni paytda huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha ko‘plab jamoat tashkilotlari tashkil etila boshlangan, profilaktika va tarbiyaviy targ‘ibot ishlari faol yuritilmoqda. Chunki bugungi globallashuv sharoitida ayrim odamlar jamiyatga zarar yetkazadigan har qanday noto‘g‘ri xatti-harakatlarga ega bo‘lib, ba’zi o‘rinlarda o‘zlari bilmagan holda ham huquqbuzarlikka yo‘l qo‘yishadi, bu insonlarning huquqiy bilimsizligi sabab sodir etiladi.

Xalqimizda bir maqol bor: «Kasallikni davolagandan ko‘ra, ancha oldin chorasi ko‘rilib, oldini olgan afzal», degan. Profilaktika asosida huquqbuzarliklar sodir etilishi mumkin bo‘lgan hudud va shaxslar oldindan aniqlanib, u yerda tashviqot ishlari olib borilsa, kelgusida bu jarayon samara berishi mumkin. Shu bilan birga, ogohlantirish – bu o‘ylangan va tayyorlangan noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish uchun bir qadam sanaladi. Hozirgi kunda eng keng tarqalgan yechimli holat – bu profilaktika, jinoyatchilikning oldini olishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilik holatini bartaraf etish, odamlarni, jamiyatni, davlatni himoya qilish bo‘yicha barcha chora-tadbirlar ko‘rilishi, boshqacha qilib aytganda, «huquqbuzarliklarning oldini olish» sub’yektlarning huquqbuzarliklar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini shakllantirishdan, ularning yakuniy «pishib yetishidan» va noqonuniy niyat amalga oshirilishidan boshlab, huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish bo‘yicha barcha faoliyatlarini aks ettiradi.

Shu munosabat bilan «... huquqbuzarliklarning» oldini olish, «to‘xtatish», «bartaraf etish» tushunchalari «huquqbuzarliklarga qarshi kurash» tushunchasini ham anglatadi.

Huquqbuzarliklarga qarshi kurash bu noqonuniy xatti-harakatlarni aniqlash, oldini olish, bartaraf etish, fosh etish va adolatli tergov qilish vazifalaridan iborat. Huquqbuzarliklarning oldini olish – yaqinlashishi mumkin bo‘lgan yoki allaqachon sodir etilgan huquqbuzarlik bilan bog‘liq holatni bildirib, xuddi huquqbuzarliklarga qarshi kurashning maxsus tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

XULOSA (ЗАКЛУЧЕНИЕ/CONCLUSION)

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, globallashuv sharoitida mamlakatimiz yoshlarining ma’naviy qiyofasi takomillashuvining ijtimoiy-ma’naviy masalalari shu darajada dolzarbki, bugungi kunda yoshlar bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar nafaqat maktab, lisey, oliy o‘quv yurtlari, balki oila, mahalla, yoshlar bilan ishlaydigan jamoat tashkilotlari o‘rtasida o‘rnatilgan mustahkam aloqalar asosida izchillik bilan amalga oshirilib, ularning dunyoqarashlarida vatanparvarlik tuyg‘usini to‘liq shakllantirganimizdagina ularni buyuk xalqimizning munosib farzandlari bo‘lib kamol topishiga zamin yaratgan bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zladi. https://uza.uz/uz/posts.

2.Ikramov R., Saparov B., Saparov A. “Avesto”da huquqiy qarashlar. Academic research in Educational sciences. Volume 2 |ISSUE 5| 2021. – B. 808. (- B. 806-814.) www.ares.uz

3.H.Homidiy. Avestodan Shohnomaga. – T.: Sharq, 2007. – B. 106.

4.Ikramov R., Saparov B., Saparov A. “Avesto”da huquqiy qarashlar. Academic research in Educational sciences. Volume 2 |ISSUE 5| 2021. – B. 812.www.ares.uz

5.https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/Jinoyat vajinoyatchiliktushunchasi

6.https://lex.uz/docs/Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси

7.Karpets I.I. Nakazaniye: sotsialniye, pravoviye i kriminologicheskiye problemi. – M.:Yurid.lit.,1973.– S.138-148.; Belyayev A. Seli nakazaniya i sredstva ix dostijeniya. –Leningrad, 1963.–S.27.; 8.ShargorodskiyM.D.Nakazaniye, yego seli i effektivnost.- Leningrad,1973.

9. Andenes I. Nakazaniye i preduprejdeniyeprestupleniy.- M.,1979.; Polubinskaya S.V. Seli ugolovnogo nakazaniya.- M.1990.

10.UsmonaliyevM. Jinoyathuquqi.Umumiyqism.Darslik. –Toshkent.:Yangi asravlodi, 2005

11. RustamboyevM.H. Jinoyathuquqi.Umumiyqism. Darslik.–Toshkent:Ilm-Ziyo,2005. vaboshqalar.
12.Tagansev N.S. Russkoye ugolovnoye pravo. Leksii. Chast obshaya. Tom 2. – Moskva, 1994. – S.5
13.Karpets I.I. Nakazaniye: sotsialniye, pravoviye i kriminologicheskiye problemi. – Moskva, 1973. – S.10
14.Norbutayev E.X. Problemi effektivnosti pravovix mer borbi s prestupnostyu: (teoriya i praktika).
15.Avtoref. diss.... dok.yurid. nauk. – Tashkent, 1991.– S.18
16.Abdurasulova Q. Ayollarjinoyatchiliginingjinoyathuquqiyvakriminologikmuammolari. – Toshkent: TDYUI, 2005. – 152b.
17.Muqimova M.Z. Sud-huquq islohotlari va jinoyat qonunini liberallashtirish masalalari. 18.Monografiya.– Samarqand: SamDU,2009. – B. 39.
19.Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. – T.: «Yangi asr avlodi», 2010. – B. 18. (-664 b.)